



ILMIY AXBOROTNOMA

№ 1, 2025

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК * SCIENTIFIC BULLETIN

BUXORO PSIXOLOGIYA VA
XORIJIY TILLAR INSTITUTI



ILMIY AXBOROTNOMASI

ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

№ 1, 2025



ISSN 3030-3710



E-ISSN 3030-3095

<http://buxpxti.uz>



ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

**BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY
AXBOROTNOMASI**
ilmiy-amaliy jurnal

**SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA INSTITUTE OF PSYCHOLOGY
AND FOREIGN LANGUAGES**
scientific and practical journal

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ИНСТИТУТА ПСИХОЛОГИИ
И ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**
научно-практический журнал

№ 1, 2025

Muassis: Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti
Tahririyat manzili: Buxoro viloyati, Kogon tumani, B.Naqshband MFY, 20-uy
<http://buxpxti.uz/>, buxpxti@gmail.com

Tel: +998918312511 Sobirova D.A.
+998905124244 Ostanov Sh.Sh.
<https://t.me/OstanovSH>

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRACIYASI XUZURIDAGI
AXBOROT VA OMMAVIY KOMMUNIKACIYALAR AGENTLIGI

ГУВОХНОМА
№ 064916

"BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI" MASULIYATI
CHEKLANGAN JAMIYAT

Ommaviy axborot vositasi davlat ruyxatidan utkazilganligi tuerisidaagi
guvoxнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669145

СТПР (СОЛІҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ІДЕНТИФІКАЦІОН РАҚАМИ)
308196898

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
22.02.2023дан

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Бухоро вилояти, Когон тумани, "В. НАҚШБАНД" МФУ HUDUDI

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси хузуридаги Ахборот ва оммавий
коммуникациялар агентлиги

22.02.2023 12:34
ТАҚДИМ ЭТИЛГАН САНА

Гувоҳнома № 064916

Фаолият тури

Ommaviy axborot vositasi sifatida faoliyatni amalga oshirish

Қўшимча маълумотлар

Оммавий ахборот воситасининг номи	Оммавий ахборот воситасининг тили	Оммавий ахборот воситасининг тури
BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI	OZBEK,RUS, ILNCLIZ	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ХУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш худуди ва шакли	Худуд	Тарқатилиш шакли
Республика миқёсида		Аънанавий

**BUXORO
PSIXOLOGIYA VA
XORIJIY TILLAR
INSTITUTI ILMIY
AXBOROTNOMASI**
ilmiy-amaliy jurnal
1-son
Buxoro - 2025. - 266 b.

**Научный вестник
Бухарского
института
психологии и
иностранных
языков**
научно-практический
журнал
Выпуск 1.
Бухара - 2025. - 266 с.

Jurnal Buxoro psixologiya
va xorijiy tillar instituti
muassisligidagi nashr
hisoblanadi.

**Jurnalning nashr sifati
uchun bosmaxona
javobgar.**

OBUNA INDEKSI 3062

Jurnal tahririyat kompyuterida
sahifalandi.
Bosishga ruxsat etildi 2.02.2025
Qog'oz bichimi 60x84, 1/8
Tezkor bosma usulda bosildi.
Shartli bosma tabog'i 16,6
Buyurtma № 11. Adadi - 60
Bahosi kelishilgan narxda.
«Sharq-Buxoro» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
Buxoro shahar O'zbekiston
Mustaqilligi ko'chasi, 70/2 uy.
Tel: 0(365) 222-46-46



ISSN 3030-3710 (P)

ISSN 3030-3095 (E)

**BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY
AXBOROTNOMASI
ilmiy-amaliy jurnal**

**SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA INSTITUTE OF PSYCHOLOGY
AND FOREIGN LANGUAGES
scientific and practical journal**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ИНСТИТУТА ПСИХОЛОГИИ
И ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ
научно-практический журнал**

№ 1, 2025

Muassis: Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti
Tahririyat manzili: Buxoro viloyati, Kogon tumani, B.Naqshband MFY, 20-uy
<http://buxpxti.uz/>, buxpxti@gmail.com

Tel: +998918312511 Sobirova D.A.
+998905124244 Ostanov Sh.Sh.
<https://t.me/OstanovSH>



BOSH MUHARRIR:

Baratov Sharif Ramzanovich

psixologiya fanlari doktori, professor,

Xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shoumarov G'.B. – O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Mas'ul kotib:

Sobirova D.A. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

XORIJ OLIMLARI

Kozlov V.V. - psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)

Malix S.B. -psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)

Maksimenko S.D. - psixologiya fanlari doktori, akademik (Ukraina)

Rejep O'zyurek -psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Darya Gaysina - Sasseks universiteti Psixologiya fakultetida genetika va epigenetika, PhD (Angliya)

O'ZBEKISTON OLIMLARI

PSIXOLOGIYA FANLARI

Umarov B.M. - psixologiya fanlari doktori, professor

Qodirov B.R. - psixologiya fanlari doktori, professor

Qodirov U.D. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Kadirov K.B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Abdurasulov R.A. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Baratova D.Sh. -psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Utepbarganov M.A. - psixologiya fanlari doktori, professor

Nazarov A.M. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Atabayeva N.B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Fayziyeva M.X. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Qarshiyeva D.S. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Abdullayeva D.U. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Arzikulov D.N. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Djurayev B. -psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ayrapetova A.G. - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Usmanova M.N. - psixologiya fanlari nomzodi, professor

Raximova I.I. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ostanov Sh.Sh. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rustamov Sh.Sh. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ibaydullayeva U.R. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Sobirov A.A. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

PEDAGOGIKA FANLARI

Ibragimov X.I. - O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi

Olimov Sh.Sh. - pedagogika fanlari doktori, professor

Abdullayeva B.S. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Hamroyev A.R. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rajabov T.I. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Dilova N.G. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

FILOLOGIYA FANLARI

Shodmonov Q.B. – filologiya fanlari doktori, professor

Gadoyeva M.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rajabov D.Z. - filologiya fanlari doktori, professor

Haydarov A.A. - filologiya fanlari doktori, professor

Rasulov Z.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor v.b.

Toirova G.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Murodov G.N. - filologiya fanlari doktori, professor

Eshbekov T.U. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Raxmatullayev Sh.N. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Xalilova R.R. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Saidov X.Sh. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MUHARRIRLAR:

Raxmatova M.M. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov M.M. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov A.M. - BuxPXTI "Xorijiy tillar" kafedrası mudiri



**"Scientific reports of Bukhara institute of psychology and foreign languages"
scientific-theoretical journal**

EDITOR-IN-CHIEF:

Baratov Sharif Ramazanovich

doctor of psychology, professor, Full Member (academician) of the International Academy of Psychological Sciences

Deputy editor-in-chief:

Shoumarov G.B. - Academician of the Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS

Responsible secretary:

Sobirova D.A. – Doctor of Psychology (DSc), professor

FOREIGN SCIENTISTS

Kozlov V.V. - Doctor of Psychology, academician (Russia)

Maliks S.B. - Doctor of Psychology, academician (Russia)

Maksimenko S.D. - Doctor of Psychology, academician (Ukraine)

Rejep Ozyurek - Doctor of Psychology, professor (Turkey)

Darya Gaysina - PhD, Genetics and Epigenetics, Faculty of Psychology, University of Sussex (England)

SCIENTISTS OF UZBEKISTAN

PSYCHOLOGICAL SCIENCES

Umarov B.M. - doctor of psychology, professor

Kadirov B.R. - doctor of psychology, professor

Kadirov U.D. - doctor of psychology, professor

Kadirov K.B. - doctor of psychology (DSc), professor

Abdurasulov R.A. - doctor of psychology (DSc), professor

Baratova D.SH. - doctor of psychology (DSc), professor

Utepborganov M.A. - doctor of psychology, professor

Nazarov A.M. - doctor of psychology (DSc), professor

Atabayeva N.B. - doctor of Psychology (DSc), professor

Fayziyeva M.Kh. - doctor of Psychology (DSc), professor

Karshiyeva D.S. - doctor of Psychology (DSc), professor

Abdullayeva D.U. - doctor of Psychology (DSc), professor

Arzikulov D.N. - doctor of Psychology (DSc), professor

Djurayev B. - doctor of Psychology (DSc), professor

Ayrapetova A.G. - doctor of Psychology (DSc), associate professor

Usmanova M.N. - candidate of psychology, professor

Raximova I.I. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor

Ostanov Sh.Sh. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor

Rustamov Sh.Sh. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor

Ibaydullayeva U.R. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor

Sobirov A.A. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor

PEDAGOGICAL SCIENCES

Ibragimov X.I. - Academician of the Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan

Olimov Sh.Sh. - doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Abdullayeva B.S. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor

Hamroyev A.R. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor

Rajabov T.I. - doctor of pedagogic sciences (DSc), professor

Dilova N.G. - doctor of pedagogic sciences (DSc), professor

PHILOLOGY SCIENCES

Shodmonov Q.B. - doctor of Philology, professor

Gadoyeva M.I. - doctor of Philology (DSc), professor

Rajabov D.Z. - doctor of Philology, professor

Haydarov A.A. - doctor of Philology, professor

Rasulov Z.I. - doctor of Philology (DSc), professor

Toirova G.I. - doctor of Philology (DSc), professor

Murodov G.N. - doctor of Philology (DSc), professor

Eshbekov T.U. - doctor of Philology (DSc), professor

Rakhmatullayev Sh.N. - doctor of philosophy in philology (PhD)

Khalilova R.R. - doctor of philosophy in philology (PhD)

Saidov X.Sh. - doctor of philosophy in philology (PhD)

EDITORS:

Rakhmatova M.M. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

Tursunov M.M. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

Kurbonov A.M. - Head of the Department of Foreign Languages of BukhPFL

Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro davlat universiteti professori,
Pedagogika fanlari nomzodi
E-mail: ruziyevdavron38@gmail.com

CHOLG'U ANSAMBLI TA'LIMI JARAYONIDA MUSIQIY ASAR IJROSIGA PSIXOLOGIK YONDASHUV

Annotatsiya. Maqolada cholg'u ansambli ta'limi jarayonida musiqa asari ustida ishlash uslublari, musiqachining ijro mahoratini tashkil etuvchi texnik ijro, ibora, artikulyatsiya ustida ishlash, kompozitorning uslubi va davrini o'rganish kabi ko'plab omillardan iborat murakkab jarayonlarga psixologik yondashish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Musiqa asari, kompozitor, cholg'u ansambli, sozanda, ritm, temp, dinamika, zarb, ijro uslubi, badiiy ifoda, ijodiy tasavvur.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ИСПОЛНЕНИЮ МУЗЫКАЛЬНОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ ИНСТРУМЕНТАЛЬНОГО АНСАМБЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы психологического подхода к сложным процессам, состоящим из множества факторов, таких как методы работы над музыкальным произведением в процессе обучения музыкального ансамбля, работа над техническим исполнением, фразировкой, артикуляцией, изучение стиля и периода. композитора, составляющие исполнительское мастерство музыканта.

Ключевые слова: Музыкальное произведение, композитор, инструментальный ансамбль, музыкант, ритм, темп, динамика, стиль исполнения, художественная выразительность, творческое воображение.

PSYCHOLOGICAL APPROACH TO THE PERFORMANCE OF A WORK OF MUSIC

Annotation. The article discusses issues of a psychological approach to complex processes consisting of many factors, such as methods of working on a piece of music in the process of training a musical ensemble, working on technical performance, phrasing, articulation, studying style and period. composer, making up the performing skills of a musician.

Keywords: Musical work, composer, instrumental ensemble, musician, rhythm, tempo, dynamics, hatch, performance style, artistic expression, creative imagination.

Kirish. Musiqa asari ustida ishlash musiqachining barcha faoliyatining asosidir. Lekin cholg'uni o'zlashtirish va asarlarni o'rganishdagi muvaffaqiyat bevosita musiqiy faoliyatga emas, balki sozanda shaxsini maqsadli rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, musiqiy, badiiy-estetik tajriba orttirishga ham bog'liqdir.

Asar ustida ishlashda muvaffaqiyatga erishish uchun uning maqsadi - badiiy obrazni ochishni tushunish kerak. Musiqiy asarni o'rganishning barcha bosqichlari ijrochini ushbu maqsadga erishish uchun barcha vositalar bilan ta'minlashga qaratilgan. Sahnada chiqish ham musiqiy obrazni ochib berishni maqsad qiladi. Barcha bosqichlarda asar ustida malakali ishlash ommaviy chiqish paytida musiqiy tasvirni muvaffaqiyatli ochib berishning zarur shartidir.

Musiqa asari ustida ishlash musiqachining ijro mahoratini tashkil etuvchi texnik ijro, ibora, artikulyatsiya ustida ishlash, kompozitorning uslubi va davrini o'rganish kabi ko'plab omillardan iborat murakkab jarayondir. Demak, asarni o'rganish jarayonida musiqachining ijrochilik va umuman, professional saviyasi oshib borishi kerak.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Musiqiy psixologiya muammolari qadimgi davrlardan boshlab musiqa san'ati rivojlanishining barcha bosqichlarida ko'rib chiqilgan.

Musiqa psixologiyasi bo'yicha ilk izlanishlar antik davr faylasuflari, o'rta asrlarda ijod etgan sharqning buyuk mutaffakkirlari asarlarida ko'rishimiz mumkin. Masalan: er.avv.VI asrda yashab o'tgan Pifagor evritmiya ta'limotida musiqa psixologiyasi haqida fikr yuritgan. U Evritmiya deganda insonning hayotiy voqeyliklardan o'ziga xos ritm, usul topa olish qobiliyatini tushungan.

Kuy va ritm inson qalbiga ta'sir ko'rsatishini ham Pifagor aniqlagan. Zamonlar osha musiqa va inson psixologiyasi bir biriga chambachas bog'liq ekanligi taraqqiy eta boshlagan. Yunon faylasufi Platon (er.avv.V asr) ham musiqaning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritgan, Uning qayd etishicha davlatning kuch va qudrati unda qanday musiqa, qaysi ohang va ritmda yangrayotganligiga bog'liq ekan.

Er.avv. IV asrda yashab o'tgan Aristotel ham musiqani inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatishini qayd etgan. U insonning ichki olami va unga musiqa yordamida ta'siri o'tkazish usullarini ochib bergan mimesis ta'limotini ishlab chiqdi. Aristotel qarashlarining e'tiborli tomonlaridan biri shundaki, u inson psixologiyasini o'zgartiradigan musiqiy ladlari batafsil tasvirlab bergan.

Qadimgi Xitoyda musiqa tartib va sivilizasiya ramzi hisoblangan. Musiqa tarbiyaning eng muhim vositasi hisoblanib o'rganilishi shart bo'lgan fanlar qatoriga kiritilgan. Hindistonda esa qadimda musiqadan davolash vositasi sifatida foydalanishgan..

O'rta asrlarda Sharqning buyuk mutaffakkirlari, xususan, Forobiy, Ibn Sino, Abdurahmon Jomiy musiqaning qalbga, kayfiyatga va inson organizmiga ta'siri masalalarini o'rganish jarayonida bevosita musiqa psixologiyasini ham tadqiq etishgan.

Barokko davrida paydo bo'lgan ta'sirlar nazariyasi musiqa psixologiyasining rivojlanishi nuqtai nazaridan katta qiziqish uyg'otadi. Ammo mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida musiqiy psixologiya 19-asrning o'rtalaridan boshlab shakllana boshlagan.

20-asrga kelib esa musiqa psixologiyasi sohasida tadqiqotlar amalga oshirilgan. Rus olimlari Teplov B.M.[7], Nazaykinskiy Ye. V.[5], Gotsdiner A.L.[2], Sagarelli Yu.A.[8], Smirnov A.A., Petrushin A.A., o'zbek olimlari Davletshin M.G.[3], G'oziev E.G'., Barotov Sh.R., Karimova V.M., To'ychiyeva S.M., Baxriyev A.R., Qodirov R.G' va boshqalar umumiy psixologiy, musiqa psixologiyasi bo'yicha ilmiy ishlarni amalga oshirgan. Jumladan, Qodirov R.G'.[9] "Musiqa psixologiyasi" bo'yicha o'quv qo'llanma yaratgan, Baxriyev A.R. esa ilmiy-tadqiqot ishini bajargan,

Natija va muhokama. Sozandalar nota yozuvga asoslangan musiqiy asar matni ustida ishlash uchun (balandlikni belgilash, ritmik, temp, ijroning dinamik tomonlari) ularda asarning badiiy mazmunini ijodiy aks ettirish talablari qo'yiladi. Nota yozuvi asosida musiqiy obraz yaratish jarayonida "tasavvur qilish" muhim ahamiyat kasb etadi (B. Teplov)[7]. Musiqiy asar uch shaklda, ya'ni bastakor tomonidan yozib qo'yilgan notalar shaklida, sozanda tomonidan ushbu notalar asosida yaratilgan jonli ijro, musiqiy badiiy obrazlarning tinglovchining hayotiy tajribasi bilan o'zaro ta'siri mavjud. Ushbu faoliyatlarning barchasida - musiqa yaratish, uni ijro etish va idrok etish, tasavvur qilish, albatta, mavjud bo'lib, ularsiz to'liq musiqiy faoliyatni amalga oshirish mumkin emas. Kompozitor musiqiy asar yaratishda tovushlar xayoli bilan ishlaydi, ularni joylashtirish mantig'ini o'ylaydi, musiqani yaratish paytida his tuyg'ular va fikrlarni yetkazadigan intonatsiyalarni tanlaydi. Ijrochi esa matn bilan ishlashni boshlaganda, musiqiy obrazni yetkazishda asosiy vosita uning texnik mahorati bo'lib, uning yordamida kerakli temp, ritm, dinamika, agogika, tembr va boshqalarni topadi. Ijroning muvaffaqiyati sozandaning musiqiy asarning yaxlit qiyofasini his qilishi va yaxshi tushunishi bilan bog'liq.

Agar tinglovchining o'zi musiqiy tovushlar asar ruhiga mos keladigan hayotiy vaziyatlarni, obrazlarni va uyushmalarni uyg'otishi mumkin bo'lsa, bastakor va ijrochi nimani ifoda etmoqchi ekanligini tushunishi mumkin.

Rivojlangan musiqiy tasavvurning o'ziga xos xususiyati uning g'ayrioddiy o'zgaruvchanligidir. Musiqiy asarlarni talqin qilishning ko'pligi ijrochining ifodali vositalardan - dinamikadan, agogikadan, artikulyatsiyadan va boshqalarni o'zgaruvchan ishlatishi orqali amalga oshiriladi. Variantlar sonini har qanday musiqiy ifoda vositasini navbatma-navbat o'zgartirib, ko'paytirish mumkin. Ansambl

sozandasi asarni pp dan ff gacha bo'lgan dinamikalar graduslarida, metrometrik aniqlikda va rubato texnikasi bilan, legatosimon va boshqa artikulyatsiya texnikalarida bajarishi mumkin. Har holda, faqat bitta musiqiy ifoda vositasining o'zgarishi musiqiy asarning ajralmas qiyofasida ma'lum o'zgarishlarga olib keladi.

Tasavvurni rivojlantirishga o'xshash yondashuvni musiqiy ifodalashning umumiy vositalariga o'tkazish va asarni o'zgartirilgan uyg'unlikda, ohangda, melizmlar bilan va ularsiz ijro etilishi mumkin. Bastakor tomonidan notalar yordamida yozilgan musiqa asari bir ma'noda bo'lishi mumkin. Ammo, haqiqiy tovushda u cheksiz ko'p, turli xil ijro etuvchi talqinlarda mavjud. O'qituvchining bajarilayotgan ishlarga o'zgaruvchan yondashuvni rag'batlantirishi, bitta asarning bir nechta bajaruvchi rejalarini tuzishi ansambl a'zolarida boy ijodiy tasavvurning shakllanishiga olib keladi, ijroning badiiy ifodaliligini oshiradi.

Badiiy ifodalashning barcha vositalarini o'zlashtirish asosida asarning badiiy qiyofasi yaratilishi kerak. Badiiy ifoda vositalari kompozitor va ijro etuvchi vositalariga bo'linadi. Bastakorning ifoda vositalariga musiqiy matnda aniq belgilab qo'yilgan barcha narsalar kiradi: uslub va tonallik, uslub va janr, shakllar (uni qismlarga bo'lish), ohang va uning tuzilishi, uyg'unligi, ritmi va metro-ritmi, temp, agogika, artikulyatsiya, qisman asarning o'ziga xos ijro uslubi va xarakteri (frazirovkasi). Ijro etuvchining vositalari - tembr, temp, agogiya, dinamika, artikulyatsiya, so'z birikmasi, ijro uslubi, applikatura va badiiy obrazdir.

Musiqiy ifoda vositalari o'zaro bog'liq va bir-biriga aloqadorlikda bo'ladi. Buni, masalan, ijro uslubi va artikulyatsiyaning musiqiy ibora qurilishining tuzilishi bilan bog'liqligini tahlil qilish orqali bilib olishimiz mumkin. Cholg'u ansamblida eng muhim ifoda vositasi – bu, musiqiy asarning ohangdorligi, ohangni rivojlantirish mantig'i (har bir intonatsiya yoki motivning to'liqligi va ularni iboralar, jumlar, davrlar)ni tushunishdir.

Ansambl sozandalariga qo'yiladigan asosiy talablardan biri – bu, musiqa asari ijrosida ayrim jummalarni aniq, bo'rtirib beruvchi vositalar: dinamika, artikulyatsiya, zarblar, applikaturani to'g'ri ifodalashdir. Shuni ta'kidlash kerakki, dinamika va tembr musiqiy ifoda etishning asosiy vositalaridan biridir. "Tembr va dinamika – bu, birinchi navbatda ijrochi yaratadigan materialdir", deydi B.M.Teplov. Akustika nazariyasida musiqiy asbob tembrining faqat registrlarda o'zgarishi odatda qabul qilingan. Shu bilan birga, ohang olinadigan kuchga qarab, tembrning ham o'zgarishi mumkinligini sezish uchun maxsus tadqiqotlar talab qilinmaydi. Ovozning dinamikasi, ya'ni ovozinin kuchliligi to'g'ridan-to'g'ri tembrga bog'liq. Ijroning yorqinligi ansamblidagi har bir asbobning tembr imkoniyatini boshqarish orqali erishiladi. Musiqachilarning kasbiy mahorati tembr dinamik eshitishning rivojlanishi, uning aniqligi va ravshanligi bilan bog'liq. Tembrni eshitish ansamblida chaladigan, boshqa asboblarning ovozini doimo eshitadigan va shu sababli boy eshitish taassurotlarini to'plash imkoniyatiga ega bo'lgan musiqachilarda yaxshi rivojlangan.

Ansamblida cholg'ular orasidagi tovush muvozanatini hisobga olgan holda dinamik gradatsiyalarning butun ko'lamini o'zlashtirish kerak: pp dan ff gacha; qarama-qarshi dinamikasi (f - p yoki p - f; sf; fp) va izchil dinamikasi (kreshcendo, diminuendo). Har bir cholg'u asbobi tarkibining o'ziga xos takrorlanmas tembr mavjud bo'lib, asarning obrazli tuzilishini rivojlantirish uchun tovush tuslarini tanlashda katta rol o'ynaydi.

Tabiiyki, musiqa asari ijrosi davomida ayrim jummalarni aniq, badiiy bo'rtirib berish jarayonida ansambl rahbari doimiy ravishda uchta asosiy masalani: musiqiy material jummalarini mazmunan munosabatda bo'lishi, birlashishi va artikulyatsiyasiga ko'ra ularni birikmalarga ajratishni hal qiladi. Ansambl a'zolari har qanday vaziyatdan unumli foydalanib, har bir musiqiy iboraning his qilishni, asarning ohangdor chizig'ining rivojlanishini ko'rish va eshitishni o'rganishlari kerak. Zero, ijro uslubining o'ziga xos muhim jihati shundaki, ansamblidagi ohangdor chiziqni turli xil asboblarga sezilmaydigan tarzda o'tkazish va shu orqali tovushlar tizimini yaratishdir. Asarning ayrim muhim o'rinlarini aniq va ravshan ifodalash – bu, ansambl to'qimalari ifodaligining asosiy elementlaridan biri bo'lib, u kuy tuzilishiga, dinamikaning o'zgarishiga, avjlarning aniqlanishiga va asarning ajralmas dinamik shakli, artikulyatsiyasi, zarblari, applikaturasiga ta'sir qiladi.

Ma'lumki, artikulyatsiyaning asosiy vositasi zarblardir. Zarb – bu, musiqa cholg'u asboblarda surunkasiga kelgan tovushlarni ijro etish birligini, rang-barangligini ta'minlaydi. Ijro turiga ko'ra zarblarning ko'p turlari mavjud. Asar ijrosida zarblarni tanlash asar ovozining xarakteriga ta'sir qiladi. Ansamblda yaxlit ovozni rivojlantirish mantig'ini his qilib, ansamblning barcha a'zolari tomonidan turli xil asboblarda zarblarni bajarishda yagona talablarga rioya qilish muhimdir. Bunday vaziyatda applikatura (uni tanlash) masalalari quyidagicha ko'rib chiqilishi kerak:

1. Texnik vositalar.
2. Musiqa xususiyatiga qarab badiiy ifoda vositasi.

Musiqiy asar sur'ati badiiy obrazning muhim jihatlaridan biridir. Ansamblda sur'atni tanlashda har bir musiqachining texnik imkoniyatlarini hisobga olish va uni muallif (yoki muharrir) ko'rsatmalariga e'tibor qaratib, badiiy natijaga erishish vositasi sifatida aniqlash kerak. Agogika (asar sur'anida kichik og'ishlar) - ansambl texnikasining asosiy vazifalaridan biri. Asarni ijro etish jarayonida sur'atning agogik burilishlari kuzatiladi. Rahbar doimiy ravishda musiqachilarning e'tiborini sur'at og'ishlarining moslashuvchanligi va o'zgaruvchanligiga qaratishi kerak. Kantilena (ohang)da agogika ustida ishlashda, turli uslubdagi musiqa ijrosini hisobga olgan holda, ma'lum bir qiyinchilik tug'diradi. Musiqiy matn tarkibidagi barcha xususiyatlarni yetkazish uchun har bir musiqachining shaxsiy xususiyatlarini saqlagan holda ansamblning barcha a'zolarining ijro etuvchi usullarini birlashtirish juda muhimdir.

Zamonaviy musiqiy psixologiyada musiqa asarining badiiy qiyofasiga uchta tamoyil - moddiy, ma'naviy va mantiqiy birlik sifatida qaraladi. Musiqiy asarning moddiy asoslari ohangdorlik, metro ritm, dinamika, tembr, registr, uslub kabi parametrlar bilan tahlil qilinadigan tovush chiqaruvchi moddalarning akustik xususiyatlari ko'rinishida paydo bo'ladi. Faqat tasavvur va iroda bog'langandagina badiiy obraz paydo bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, musiqiy matn va musiqiy asarning akustik parametrlari uning moddiy asosini tashkil etadi. Kayfiyat, uyushmalar, turli xayoliy tasavvurlar musiqiy obrazning ma'naviy, ideal tomonlarini yaratadi. Musiqiy asarlarni uning uyg'un tuzilishi nuqtai nazaridan rasmiy tashkil etish, jumlar ketma-ketligi musiqiy obrazning mantiqiy tarkibiy qismini tashkil etadi. Bastakor, ijrochi, tinglovchi ongida musiqiy obrazning barcha ushbu tamoyillari to'g'risida tushuncha mavjud bo'lgandagina biz haqiqiy musiqiy fikrlash borligi haqida gaplasha olamiz. Bunday fikrlash asoslari xayolot va mantiqiy fikrlashni uyg'otish uchun oziqa beradigan eshitish sezgisi va in'ikoslari asosida rivojlantiradi.

Asarning badiiy mazmunini ifodali ravishda takrorlash va tinglovchiga yetkazish ansambldagi musiqachi-ijrochilarning asosiy vazifasidir. Har bir ishtirokchining ijrochilik ijodkorligi va ansamblning barcha a'zolarining ijro etuvchi uslublarini birlashtirish, musiqiy asarning jamoaviy talqinini ishlab chiqish rahbarning asosiy vazifasidir. Asarning badiiy mazmunini ochish va amalga oshirish metro-ritmik impulsning birligini, musiqiy ifoda vositalaridan foydalanish, nota matnining barcha xususiyatlarining yagona uzatilishini birlashtirishning uyg'unlik izchilligiga erishish jamoaviy tuyg'usi bilan yuzaga keladi.

Xulosa. Musiqa asari ustida ishlashda muvaffaqiyatga erishish uchun uning badiiy obrazini ochishga yo'naltirilgan barcha vositalardan o'rinli foydalanish kerak. Ijroning muvaffaqiyati sozandaning musiqiy asarning yaxlit qiyofasini his qilishi va yaxshi tushunishi bilan bog'liq. Musiqachining ijro mahoratini tashkil etuvchi texnik ijro, ibora, artikulyatsiya ustida ishlash, kompozitorning uslubi va davrini o'rganish kabi ko'plab omillardan iborat murakkab jarayondir. Demak, asarni o'rganish jarayonida musiqachining ijrochilik va umuman, professional saviyasi oshib borishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

- 1, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-son [Qarori](#)
2. Готсдинер А.Л. Музыкальная психология. — М. : 1993
3. Davletshin M.G., To'ychiyeva S.M. Umumiy psixologiya. –T.: TDPU, 2012.

4. Каримова Д. А. Муסיкий педагогик маҳорат асослари. Олий ўқув юртлари учун дарслик. - Т.: «IQTISOD-MOLIYA», 2008.
5. Назайкинский Е. В. О психологии музыкального восприятия [Текст]. - Москва: Музыка, 1972.
6. Ruziyev, D. Yu. Konsert ijrochiligi asoslari. Darslik - Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdoni, 2022.
7. Ruziyev, D. Yu. Ansambl bilan ishlash uslubiyoti Darslik -Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdoni, 2021.
8. Теплов Б. М. Психология музыкальных способностей — М. : 1961.
9. Цагарелли Ю.А. Музыкальная педагогика и психология — М. : Композитор, 2008.
10. Qodirov R.G'. "Musiqqa psixologiyasi". Т.: "Musiqqa " nashryoti 2005 .

Mundarija /Содержание/Contents

	19.00.00 – PSIXOLOGIYA
5	Karimova Vasila Mamanosirovna, Madvaliyev Gulra'no Sharipovna Ijtimoiy tasavvurlar konsepsiyasi – ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning metodologik asosi sifatida
10	Акрамова Феруза Акмалована Классификация семей и проблема насилия в семье
14	Ostanov Shuxrat Sharifovich Deviant xulq-atvorli o'smirlarda kreativlikni rivojlantirishning psixologik jihatlari
18	Abdurasulov Rustam Abduraimovich, Hazratqulov Sardor Furqat o'g'li Professional basketbolchilar faoliyatida o'zini-o'zi nazorat qilishning psixologik xususiyatlari
22	Abdullayev Baxodirjon Maxamadjonovich Kar va zaif eshituvchi o'quvchilar huquqiy madaniyatini shakllantirishga doir tajriba- sinov ishlarini tashkil etish metodikasi
26	Abdulmadjidova Mahdiyona Dilmurodjon qizi O'quvchilarda kasbiy tanlovni rivojlantirishning psixologik va ijtimoiy determinantlari
29	Ag'amurodov Sarvar Istamovich Oliy ta'lim talabalarida ijodiy faollik motivatsiyasi shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari
33	Axmedova Shaxzoda Axtamovna Bo'lajak pedagoglarda kasbiy identiklik shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar
37	Babayeva Nazira Asatullayevna Zamonaviy otalarning ijtimoiy-psixologik portreti
41	Ergasheva Muhayyo Jo'rayevna Kichik maktab yoshidagi oilaviy bolalar uyi tarbiyalanuvchilarida irodaviy sifatlarni shakllanishi
45	Farfiyev Yoqubjon Atxamdjonovich Ichki ishlar organ rahbarlarining muhim kasbiy sifatlarini o'rganish natijalari
52	Ilhamova Difuza Ilyasovna, Rafikova Nozima Muzaffarovna Tibbiyot xodimlarida kasbiy so'nish holatining psixologik xususiyatlari
57	Isroilova Saida Erkinovna Oilaviy zo'ravonlik holatlarida jabrlanuvchi ayollarning ruhiy barqarorlik omillari va ularni rivojlantirishning psixologik usullari
63	Kulatova Svetlana Yuldashevna O'smir shaxsida destruktiv axborotlarni qabul qilishning psixologiya ilmiy-nazariy asoslari
67	Makhmudova Zulfiya Mekhmonovna Socio-psychological and communicative competence of protective service staff
73	Maxkamova Laylo Majidova Insult bilan xastalangan bemorlarda rehabilitatsiya jarayonini tashkil etishning nazariy jihatlari
76	Primov Rustam Anvar o'g'li, Mirzayeva Sayyora Rustamovna Samotik kasalliklarni kelib chiqishi xavotir va bemorning shaxsiy fazilatlariga bog'liqligini psixologik jihatlari
80	Nasimdjanova Maxsuma Majidovna, Jaloldinova Feruza Abdumannob qizi Study of the problem of aggressiveness in foreign psychology

171	Irgasheva Nurxon Abdullayevna Zamonaviy ta'lim muhitida pedagogik mahoratning shakllanishi
174	Atoyeva Mexriniso Farhodovna, Jo'raqulov Sanjar Zafarjon o'g'li Innovatsion yondashuvlar orqali mustaqil ta'limni tashkil etishda virtual laboratoriyalar va masofaviy ta'limning ahamiyati
179	Kirmizi Mambetqasimova Yengil atletikada ruhiy chidamlilik va muvaffaqiyatga erishish omillari
182	Komilov Nodirbek Bokijonovich Tibbiyot tarixi fanining rivojlanish bosqichlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari va tibbiy ta'limdagi o'rni
187	Mirzoyeva Sayyora Sidiq qizi Texnika oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlarni virtual ta'lim muhitida o'qitishning pedagogik shart-sharoitlari
193	Rashidova Mehriya Muzafarovna Boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari
200	Ruziyev Davron Yuldashevich Cholg'u ansambli ta'limi jarayonida musiqiy asar ijrosiga psixologik yondashuv
205	Siddiqov Zayniddin Xoldarovich Chiziqli regression model tenglamasining ko'rinishini aniqlash masalalari
210	Xolbekov Abdusattor Maxammatovich Talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirishga oid ilmiy manbalar tahlili
215	Рафикова Рената Анатольевна Психолого-педагогические основы применения steam-образования в средних классах
221	Djadigerova Gulnaz Maratovna Pedagogik faoliyatning individual uslubi va psixolog xizmatning modeli
225	Odilova Madina Yoqubovna Bioinfotmatikaning biotexnologiyadagi o'rni
	10.00.00 – FILOLOGIYA
230	Achilova Dilnoza Kuldashvna O'zbek va fransuz xalq maqollarining badiiyati xususida
237	Sanakulov Jahongir Khudayberdievich Impact of multiculturalism in french linguistics
242	Xayrullayeva Gulasal Farhodovna The metaphorical landscape of enemy in shakespeare's hamlet
246	Абдуллаева Нилуфар Насуллоевна Пословицы в литературе: использование французских пословиц классиками и современными писателями
251	Розикова Наталья Николаевна Формирование лингвострановедческой компетенции студентов гуманитарных специальностей
257	Джуракулова Паризода Отабек кизи Роль иностранного языка в межкультурной коммуникации



**BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY
AXBOROTNOMASI ILMIY-AMALIY JURNAL**

№ 1, 2025

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **2023-yil 22-fevral № 064916-sonli** guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2023 yil 29 dekabrda 347-son qarori bilan **10.00.00 – filologiya, 13.00.00 – pedagogika, 19.00.00 – psixologiya** fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

**Buxoro psixologiya va xorijiy tillar
instituti ilmiy axborotnomasi // ilmiy-amaliy jurnal. - Buxoro, 2025.
№ 1. – 266 b.**